



THE HISTORY OF AMIR TEMUR'S STATEHOOD: THE SYSTEM OF GOVERNANCE AND POLITICAL-ADMINISTRATIVE FOUNDATIONS

Ziyadulla Muminovich Khidirov

PhD in Law

Associate Professor at Renaissance University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, statehood, centralized governance, Tuzuk-i-Timuri, military system, Timurid state.

Received: 02.03.26

Accepted: 03.03.26

Published: 04.03.26

Abstract: This article examines the foundations of Amir Temur's statehood, focusing on its administrative structure, military organization, and legal principles. The study is based on primary historical sources such as the "Tuzuk-i-Timuri," Sharaf al-Din Ali Yazdi's "Zafarnama," and Nizam al-Din Shami's chronicles, alongside modern historiography. The findings indicate that Temur's state was built upon centralized governance, strict discipline, and meritocratic principles. The article highlights the long-term political influence of Temur's state model in Central Asia.

AMIR TEMUR DAVLATCHILIK TARIXI: BOSHQARUV TIZIMI VA SIYOSIY-MA'MURIY ASOSLARI

Ziyadulla Mo'minovich Xidirov

Renessans universiteti dotsenti, y.f.n

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temuriylar davlati, davlatchilik, Temur tuzuklari, markazlashgan boshqaruv, harbiy tizim, Movarounnahr.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur davlatchilik tarixining shakllanishi, boshqaruv tizimi, harbiy-ma'muriy tuzilmasi hamda huquqiy asoslari IMRAD metodologiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Nizomiddin Shomiyning asarlari hamda zamonaviy tarixshunoslik manbalari asos qilib olindi.

Natijalar Amir Temur davlati markazlashgan boshqaruv, qat'iy intizom va meritokratik tamoyillarga asoslanganini ko'rsatadi. Xususan, davlat boshqaruvida harbiy-ma'muriy ierarxiya, viloyatlar tizimi va soliqqa oid mexanizmlar aniq tartibga solingan. Tadqiqot Amir Temur davlatchilik modelining keyingi davrlar siyosiy tizimlariga ta'sirini ochib beradi.

ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ АМИРА ТЕМУРА: СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ И ПОЛИТИКО-АДМИНИСТРАТИВНЫЕ ОСНОВЫ

Зиядулла Муминович Хидиров

Кандидат юридических наук

Доцент Университета Ренессанс

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, государственность, централизованное управление, Тузуки Темури, военная система, Темуриды.

Аннотация: В статье анализируются основы государственности Амира Темура, его административная и военная система управления, а также правовые принципы формирования централизованного государства. В исследовании использованы исторические источники – «Тузуки Темури», «Зафарнаме» Шарафаддина Али Язди и труды Низамиддина Шами, а также современные научные исследования. Результаты показывают, что государство Темура строилось на принципах централизованного управления, строгой дисциплины и меритократии. Рассматривается влияние данной модели на последующее развитие политических структур региона.

Kirish. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr hududida siyosiy parokandalik va hokimiyat uchun kurash jarayonlari kuchaygan edi. Chig'atoy ulusining zaiflashuvi, mahalliy amirlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar hamda tashqi bosimlar markazlashgan siyosiy tuzumni qayta tiklash zaruratini yuzaga keltirdi. Ana shunday murakkab va beqaror vaziyatda Amir Temur (1336–1405) tarixiy sahnaga chiqib, qisqa muddat ichida hududiy yaxlitlikni tiklash hamda kuchli markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi [5].

Temur asos solgan davlatchilik tizimi faqat harbiy salohiyatga tayangan siyosiy tuzilma emas edi. U izchil boshqaruv mexanizmlari, iqtisodiy resurslarni markazlashtirish, savdo yo'llarini nazorat qilish hamda keng qamrovli diplomatik aloqalar tizimi bilan mustahkamlangan murakkab siyosiy institut sifatida shakllandi. Zamonaviy tarixshunoslikda Temur davlati markazlashgan feodal monarxiya sifatida tavsiflanib, unda oliy hokimiyat bir shaxs qo'lida jamlangan bo'lsa-da, boshqaruv tizimi qat'iy ierarxik tuzilma va sodiqlik tamoyiliga asoslanganligi ta'kidlanadi[3].

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot manbashunoslik, tarixiy-qiyosiy hamda tizimli tahlil metodologiyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Ilk bosqichda asosiy birlamchi manbalar – “Temur tuzuklari”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si va Nizomiddin Shomiyning tarixiy asarlari – kontent va kontekstual tahlil asosida o'rganildi. Ushbu manbalar Amir Temur davlatchiligining siyosiy-huquqiy va harbiy-ma'muriy asoslarini rekonstruksiya qilish imkonini berdi.

Bizga ta'rixdan ma'lumki, Amir Temur mohir sarkarda bo'lib qolmasdan balki buyuk davlat arbobi hisoblanadi. Bu Sohibqironning davlatni qanday boshqarganligi va bu boshqaruvda kimlardan foydalanganligi hech bir insonni befarq qoldirmasligi turgan gap. Bilamizki, Movarounnahr mintaqasida chingiziylarning qariyb bir yarim asrlik hukmronligi va ular tufayli yuzaga kelgan vayronagarchiliklar, moddiy va ma'naviy parokandalik natijasida tamoman izdan chiqqan davlat tizimi va undagi ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy-ma'naviy hayot buyuk Temur saltanatiga meros bo'lib o'tadi. Ushbu meros o'z vorisiga mamlakat hayotini tiklash, o'z davri talabidan kelib chiqib, uni zamonaviy holatga keltirish, taraqqiy ettirish kabi nihoyatda og'ir va murakkab vazifani yuklagan edi.

Tadbirkor sarkarda va davlat arbobi darajasiga ega bo'la olgan Amir Temur ushbu murakkab vazifani bajarish reja va tadbirlarini ishlab chiqib, uni birin-ketin amalga oshira boshladi. U mamlakatni boshqarish qonunlarini qayta ishlab chiqish va uni amalda joriy etish maqsadida o'z ajdodi (urug'i) sanalgan barloslarni alohida imtiyozga ega qildi. Amir Temur birinchi galda o'ziga yaqin safdoshlarini har sohada, ayniqsa, siyosiy va jangovarlik ruhidagi ishonchli kuch hisoblar edi. Shuning uchun barloslardan maxsus topshiriqlarni bajaruvchi ishonchli gvardiyani tuzadi, ularga mansablar ulashadi. O'lka mahkamalarini va qo'shin safini boshqarishda ulardan foydalanadi va ularga katta ishonch bildiradi. Ular orqali boshqa qabila-urug'larning ham ishonchini qozonadi. Jumladan, u barlos, tarxon, jaloyir, org'in, sulduz, duldoiy, to'g'oy, qipchoq, totor, qiyot kabi qirqdan ortiq urug'lar birligini tuzishga muyassar bo'ladi va ularga ham mavqeiga qarab mansablar beradi.

Natijalar va muhokamalar. Markaziy davlatning boshqarilishida oliy hukmron va Bosh qo'mondon (Amir Temurning o'zi) va uning nazoratidagi ma'muriyat boshlig'i-devonbegi, hukumat tarkibida hamda saroy marosimlarini boshqaruvchi arkda bir necha vazirlar ishtirok etishgan. Bu haqda "Temur tuzuklari"da quyidagicha ma'lumotlar bor: "Amr qildimki, to'rt vazir har kuni devonxonada hozir bo'lsinlar. Birinchi - mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muomalalarni, raiyat aholini, viloyatlardan olingan hosil, soliq-o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, (mamlakat) obodonchiligini, (aholining)farovonligi ishlarini va xazina qanday qilib tartibga keltirilganligini menga bildirib tursin.

Ikkinchi - sipoh (harbiy) vaziridirki, sipohiylarning maoshlari va tanho(toji-taxtdagi xizmat)larini boshqarsin, tarqoq holatga tushib qolmasligi uchun (doimo) sipoh ahvolidin xabardor bo'lsin va ularning ahvoli haqida menga xabar berib tursin.

Uchinchi - egasiz qolgan, vafot etgan yoki qochib ketganlarga tegishli mol-mulkni, kelib ketayotgan (savdogarlar) mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o'tloq-yaylovlarini boshqarib, bularning barchasidan yig'ilgan daromadlarni omonat tarzida saqlovchi vazirlardir. U g'oyib bo'lganlar va vafot etganlarning mol-mulki bo'lsa, merosxo'rlariga topshirsin.

To'rtinchisi - saltanat ishlarini yurituvchi vazir.U butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan tamom xarajatlar, otxona va (saroydagi) boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlargacha ogoh bo'lishi kerak.

Yana amr qildimki, sarhadlar va menga tobe mamlakatlarga oid (ishlarga mas'ul) uch vazirdan iborat davlat hay'ati (xolisa) tuzilsin. Ular mazkur yerlardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqarsinlar. Bu yetti vazir devonbegiga bo'ysunishi lozim va u bilan ittifoqda muhim moliyaviy ishlarni amalga oshirmoqlari va mening arzimga yetkazishlari darkor.

Yana hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. (Bu vazir turli sohalardan kelgan arz-dod, shikoyatlarni tekshirib, hukm chiqaruvchi-adliya, ya'ni sud tizimi bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullanadi va ikki tarmoqqa yoki ikki vazirlik lavozimiga ega: harbiy sud-lashkar qozisi va fuqaro sudi hamda islomiy shariat qozisi va sadrlar sadri, sayidlar va boshqa arboblarga suyurg'al tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini tekshirib turib, bu haqda sohibqironni xabardor etadigan qozilar)[9].

Shu kabi ish yuritish-hujjalashtirish uchun maxsus kotiblar tayinlangan. Masalan, "maxfiy va sirli ishlarni pinhon tutishga qodir bo'lgan maxsus kotib(munshiyi mahram) va devon majlislarida qatnashib, tafsilotlarni yozib boruvchi, hujjatlashtiruvchi kotib, shu kabi saltanatning

har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib boruvchi kotiblar tayinlangan. Demak, saltanatni boshqaruv tizimida 8-9 ta vazirlik va bir qancha kotiblar ham jalb etilgan [12].

Xulosa. Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlatchilik tizimi Markaziy Osiyo siyosiy tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. XIV–XV asrlar kesimida shakllangan ushbu siyosiy model hududiy yaxlitlikni tiklash, markazlashgan boshqaruvni mustahkamlash hamda ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash orqali mintaqada barqarorlikni qaror toptirdi. Oliy hokimiyatning markazda jamlanishi, harbiy tuzilmaning qat'iy ierarxiyaga asoslanishi va izchil diplomatik strategiyaning yuritilishi Temur davlatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar bo'ldi.

Temur davlatchiligi tajribasi keyingi siyosiy tuzilmalar, xususan temuriylar davri boshqaruv amaliyotida davom ettirildi va takomillashtirildi. Markazlashgan boshqaruv modeli, harbiy-intizomiy tizim va diplomatik muvozanat tamoyillari keyingi mintaqaviy davlatlar siyosiy tuzilmasiga ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatdi. Shu ma'noda, Amir Temur davlatchiligi nafaqat o'z davrining mahsuli, balki Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi an'alarining shakllanishi va evolyutsiyasida muhim tarixiy tajriba sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azamat Ziyov. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000.
2. Amir Temur jahon tarixida. – Parij, 1996;
3. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. – T., 1996;
4. Ziyayev X. Buyuk amir Temur saltanati va uning taqdiri. –T., 2008.
5. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur(Temur tarixida taqdir ajoyibotdari). –T., 1992;
6. Muminov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. 2-nashri. –T.: "Fan", 1993.
7. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar saltanati(Tarixiy ocherk). – T., 1994;
8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., 1996;
9. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T., 1997;
10. Sagdullaev A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.
11. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jildlik. –T.: "O'zME", 2000-2006.
12. Temur tuzuklari, 1991-yilgi nashrda 85-86-bb., 1996-yilgi nashri 107-b.